

**SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI TEXNOLOGIYALAR VA TIL TA'LIMIDA  
O'QITUVCHISI FUNKSIYALARINING TRANSFORMATSIYASI****Ilmiy rahbar: Panjiyeva Nasiba Narmahmatovna****Ro'ziqulova Sabina Elmurodovna**

Ish joyi: Filologiya va tillarni o'qitish ingliz tili(rus) 1-kurs talabasi

Telefon: (+998)97-818-29-02

E-mail: [sabinaruzikulava@gmail.com](mailto:sabinaruzikulava@gmail.com)

**Annotatsiya:** So'nggi yillarda sun'iy intellekt asosidagi til o'rgatuvchi platformalar, katta til modellari va adaptiv ta'lim tizimlari ommalashib, "o'qituvchi kerakmi?" degan bahsni kuchaytirdi. Maqolada sun'iy intellektning til ta'limidagi funksional imkoniyatlari hamda inson o'qituvchisining o'rnini to'ldirib bo'lmaydigan kasbiy-pedagogik funksiyalari qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, sun'iy intellektga suyanish bilan bog'liq xavflar - akademik halollik, ma'lumot maxfiyligi, algoritmik og'ish, til me'yori va pragmatik kompetensiyaga ta'sir, baholashda adolat - ilmiy nuqtai nazardan muhokama etiladi. Xulosada sun'iy intellekt inson o'qituvchisini to'liq almashtirishdan ko'ra, unga intellektual assistent sifatida xizmat qilishi, samarali model esa "o'qituvchi + sun'iy intellekt" gibrid ekotizimi ekani asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, til ta'limi, o'qituvchi, kompetensiya, adaptiv ta'lim, kommunikatsiya, metodika, formativ baholash, akademik halollik, raqamli didaktika, pragmatik kompetensiya, ta'lim etikasi.

**KIRISH**

Til o'qitish - faqat leksika va grammatikani uzatish emas, balki o'rganuvchining muloqotga kirishish qobiliyati, pragmatik sezgirligi, madaniy kontekstni anglashi, motivatsiyasi va o'ziga ishonchi kabi ko'p qirrali omillarni shakllantirish jarayonidir. Shu ma'noda til o'qituvchisi "mazmun yetkazuvchi" dan ko'ra kengroq rol bajaradi: u ta'lim muhitini loyihalaydi, o'quvchi ehtiyojini tashxis qiladi, strategik maqsad qo'yadi, natijani baholaydi va shaxsiy rivojlanish traektoriyasini boshqaradi.

Biroq sun'iy intellektning jadal rivojlanishi, ayniqsa katta til modellari va nutq texnologiyalarining taraqqiyoti til o'rgatishning ayrim komponentlarini avtomatlashtirish imkonini keskin oshirdi. Bugun o'quvchi istalgan vaqtda "virtual suhbatdosh" bilan muloqot qilishi, xatosini tezkor tekshirishi, matnni uslubiy tahrir qilishi, hatto imtihonga tayyorlanish rejasini avtomatik tuzdirishi mumkin. Shu holat "Sun'iy intellekt inson til o'qituvchisini almashtira oladimi?" degan savolni faqat

texnologik emas, pedagogik, axloqiy va institutsional nuqtai nazardan ham dolzarb qildi.

**Maqolaning maqsadi** - sun'iy intellektning til ta'limidagi real imkoniyatlari va cheklovlarini tizimli baholash, inson o'qituvchisining almashtirilmas funksiyalarini ilmiy asoslash va amaliyot uchun gibril modelga oid metodik tavsiyalarni ishlab chiqishdir.

### **ASOSIY QISM**

Sun'iy intellektning til ta'limiga kirib kelishi "o'qituvchini almashtiradimi?" degan savolni kun tartibiga olib chiqdi. Biroq ilmiy yondashuvda savolning o'zi metodologik jihatdan aniqlashtirilishi zarur: "almashtirish" deganda nimani nazarda tutaymiz - mashq berish va xatoni tuzatish kabi texnik-amaliy funksiyalarni bajarishnimi yoki ta'lim sifati uchun to'liq pedagogik mas'uliyatni zimmasiga olishnimi? Ta'lim siyosati darajasida ham sun'iy intellekt masalasi "insonni chetlatish" emas, balki raqamli transformatsiya doirasida samaradorlik, sifat va boshqaruvni kuchaytirish kontekstida ko'rilmogda. O'zbekistonda "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi" tasdiqlangani va u "Raqamli O'zbekiston - 2030" yo'nalishlari bilan uyg'unlashtirilgani buning dalilidir.

*Til o'rganishda sun'iy intellektning amaliy kuchi uchta o'qda yaqqol ko'rinadi:*

-masshtab

-tezkorlik

-hamda individuallashtirish.

Zamonaviy generativ modellar o'quvchining darajasi, qiziqishi va xatolar "izlari"ga qarab mashqlar variantlarini ishlab chiqishi, matnni soddalashtirishi yoki murakkablashtirishi, mavzuli lug'at bloklarini shakllantirishi mumkin. Bu jihat, ayniqsa, "bir sinf - turli daraja" sharoitida o'qituvchining vaqt resursini tejaydi va differensial ta'limni tizimlashtirishga xizmat qiladi.

O'zbek pedagogikasida innovatsion texnologiyalar ta'limni individuallashtirish va jarayonni boshqarish vositasi sifatida izohlanadi<sup>1</sup>. Xususan, R.Ishmuhammedov va M.Yuldashev innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim natijasiga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan hamda takrorlanuvchi jarayon sifatida talqin qiladi<sup>2</sup>.

Tezkor mulohaza va formativ baholash - til o'rganishning "har kuni" ishlaydigan mexanizmi. O'quvchi xatoni aynan o'sha paytda ko'rib, to'g'ri variantni amalda sinab ko'rmasa, avtomatlashtirish sekinlashadi.

<sup>1</sup> Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (o'quv qo'llanma). - Toshkent: "Moliya". - 171 b. - 2003.

<sup>2</sup> Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: "Nihol". - 278 b. - 2013.

Sun'iy intellekt grammatika, imlo, uslub, bog'lanishlilik bo'yicha darhol tavsiya bera oladi, shuningdek, progress indikatorlarini "ko'rinadigan" qiladi. Ta'lim analitikasi o'qituvchiga qaysi mavzuda "tiqilish" bo'layotganini, qaysi ko'nikmada regress yoki turg'unlik yuzaga kelayotganini ko'rsatib, maqsadli aralashuvni osonlashtiradi. O'zbek mualliflarining sun'iy intellekt ta'limdagi roli haqidagi tahlillarida ham aynan baholashni avtomatlashtirish, monitoring va moslashtirilgan yo'nalish yaratish ustuvor yo'nalishlar sifatida qayd etiladi<sup>3</sup>.

Sun'iy intellekt asosidagi vositalar o'quvchi nutqini yozib olib, fonemik almashinish, urg'u xatolari, ritm-aktsent nomuvofiqliklari bo'yicha signal beradi<sup>4</sup>. Bunday texnik yordam fonetikani o'rgatishning o'zi emas, balki fonetikani o'rgatishga xizmat qiladigan diagnostika va mashq maydonidir, natijani esa o'qituvchi pedagogik vazifaga aylantiradi. Qaysi xato tizimli, qaysi xato shoshqaloqlik, qaysi xato esa psixologik to'siq bilan bog'liq - mana shu farqlash insoniy kuzatuvni talab qiladi.

Nutq texnologiyalari til o'qitishning fonetika segmentida alohida qiymatga ega. Katta guruhlarda individual talaffuz bo'yicha "jonli" treningni har doim ham yetarli hajmda berish qiyin. Shu nuqtada asosiy ilmiy chegara ko'rinadi. Sun'iy intellekt "til haqida" ma'lumotni tez beradi, lekin "ta'limni boshqarish" va "insonni rivojlantirish" kabi kompleks funksiyalarda barqaror cheklovlarga ega. Til ta'limi nazariyalarida tilning o'zlashtirilishi ko'pincha ijtimoiy o'zaro ta'sir, ma'noli muloqot va motivatsion muhit bilan bog'lanadi. Vygotskiyga tayanuvchi yondashuvda bilim "vositachilik" orqali ijtimoiy maydonda shakllanadi, demak, o'qituvchi faqat kontent beruvchi emas, balki muloqotni tashkil etuvchi va taraqqiyot zonasini boshqaruvchi subyektdir. UNESCO ham generativ sun'iy intellekt bo'yicha tavsiyalarida o'qituvchini markazdan siqib chiqarish emas, balki uning salohiyatini kuchaytirish, me'yoriy-axloqiy tartib va inson kapitalini rivojlantirishni asosiy yo'nalish sifatida ko'rsatadi.

Til o'qituvchisining almashtirib bo'lmaydigan kasbiy funksiyalaridan **birinchisi** - didaktik maqsad qo'yish va kurs dizaynidir. Kontent ko'pligi ta'lim sifatini avtomatik oshirmaydi, aksincha, maqsad-vosita-natija uyg'unligi buzilsa, "ko'p mashq" charchoq va fragmentatsiyaga olib keladi. O'zbek metodik maktabida ham chet tilini o'qitishda kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuv, mashq tizimi va darsni loyihalash masalalari markaziy o'rin tutadi. J.Jalolovning chet tili o'qitish metodikasi bo'yicha darsligida tilni uyushgan holda amaliy egallash, metodlarning tanlanishi va natijaga yo'naltirilgan o'qitish tamoyillari ta'kidlanadi<sup>5</sup>. Sun'iy intellekt bu yerda yordamchi, u

<sup>3</sup> Abdusamatov S. Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellekt elementlarining o'rni va ulardan foydalanish metodikasi. - inlibrary.uz / universaljurnal.uz. - 2025.

<sup>4</sup> Alimov R.T. Ta'limda sun'iy intellekt: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollari. - minjusttraining.uz. - 2025.

<sup>5</sup> Jalolov J.J. Chet tili o'qitish metodikasi. - Toshkent: "O'qituvchi". - 412 b. - 2012.

variantlar beradi, lekin “nimani, qachon, nima uchun” o‘qitish qarorini pedagogik mas’uliyat bilan inson qabul qiladi.

**Ikkinchi** fundamental qatlam - pragmatik va sotsiokultural kompetensiyani tarbiyalashdir. “Grammatik to‘g‘ri” jumla har doim ham “o‘rinli” jumla emas, hurmat shakllari, mulohaza ohangi, yumor, diskurs normalari, rolga mos nutq, muloqot etiketi real vaziyat sezgirligini talab qiladi. Sun‘iy intellekt juda ko‘p misol keltirishi mumkin, biroq auditoriya madaniyati, mahalliy ijtimoiy kontekst va o‘quvchining shaxsiy tajribasi bilan bog‘lashda inson o‘qituvchisi samaraliroq, u “nima deyildi?” bilan birga “nima uchun shunday deyildi?” va “qanday ta’sir qildi?” savollarini ham boshqaradi. Bunda o‘qituvchi ko‘pincha “tarjimon” rolini bajaradi: til birliklarini madaniy ma’noga, madaniy signallarni esa til tanloviga aylantiradi.

**Uchinchi** qatlam - motivatsiya, ishonch va emotsional qo‘llab-quvvatlashdir. Dörnyei motivatsiyani til o‘rganishdagi hal qiluvchi omil sifatida asoslaydi; amaliyotda esa o‘quvchi ko‘pincha aynan gapirishda psixologik to‘siqqa uchraydi. Sun‘iy intellekt muloqotni “behukm” va doimiy qilish orqali yordam berishi mumkin, ammo sinfda xavfsiz kommunikativ muhit yaratish, o‘quvchining holatini sezish, rag‘batlantirishning mos shaklini topish, real insoniy “namuna” bo‘lish vazifasi asosan o‘qituvchiga tegishli. Bundan tashqari, guruhda o‘qitish - ijtimoiy dinamika: hamkorlik, munozara, rolli o‘yin, loyiha, taqdimot kabi faoliyatlarda o‘qituvchi rejissyor sifatida jarayonni boshqaradi; kim gapiryapti, kim chetda qolmoqda, qaysi nuqtada konflikt yoki tushunmovchilik kuchaydi - buni sun‘iy intellekt to‘liq “his” qila olmaydi.

**To‘rtinchi** masala - baholash adolati va axloqiy mas’uliyat. Baholash faqat texnik hisob emas; u me’yor, sharoit, o‘quvchining rivojlanish trayektoriyasi va vazifa murakkabligini inobatga oladigan pedagogik hukmdir. UNESCO tavsiyalarida ham generativ sun‘iy intellekt ta’limda qo‘llanganda ma’lumot xavfsizligi, shaffoflik, javobgarlik va adolat tamoyillari alohida urg‘ulanadi. O‘zbek pedagogik adabiyotida pedagogik texnologiya masalasi ko‘pincha “kutilgan natijani kafolatlash” va “jarayonni boshqarish” bilan bog‘lanadi. N.Azixodjayeve pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratni o‘qituvchi kasbiy kompetensiyasining integrativ ko‘rsatkichi sifatida yoritadi<sup>6</sup>. Sun‘iy intellekt baholashni tezlashtiradi, lekin adolat mezonlarini belgilash va akademik halollik siyosatini yuritish insoniy boshqaruvni talab qiladi.

<sup>6</sup> Azixodjayeve N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. - 160 b. - 2006.

“Almashtirish” tushunchasi aynan shu yerda metodologik noaniqlikka uchraydi. Agar “almashtirish” deganda mashq berish, xatoni tuzatish, andozaviy izoh berish kabi rutin segmentlar tushunilsa, sun’iy intellekt ulkan ulushni qoplaydi.

Agar “almashtirish” deganda ta’limning yakuniy sifati, tarbiyaviy natija, ijtimoiy moslashuv, pragmatik o’rinlilik, mustaqil o’qish strategiyalari, sinf muhitini boshqarish va baholash mas’uliyati nazarda tutilsa, u holda sun’iy intellekt hozircha to’liq “o’qituvchi” maqomiga chiqmaydi.

Xalqaro tadqiqotlarda ham generativ sun’iy intellekt til o’qituvchilari ta’limiga sezilarli ta’sir ko’rsatishi, biroq o’qituvchilarni tayyorlash va etik-didaktik moslashtirish bo’yicha jiddiy ehtiyoj borligi qayd etiladi. Aniqlanishicha<sup>7</sup>, sun’iy intellektga ortiqcha suyanish bir nechta xavf tug’diradi.

**Birinchisi** - akademik halollik - generativ model matn yozishi, javob topishi, hatto uslubiy “silliqlash” berishi mumkin, natijada “o’quvchi ishlandi” signali ishonchsizlashadi. Buni bartaraf etish uchun baholashni natijadan ko’ra jarayonga bog’lash ilmiy-metodik zaruratga aylanadi.

**Ikkinchi xavf** - ma’lumot maxfiyligi - o’quvchining matnlari, audio yozuvlari, shaxsiy tafsilotlari uchinchi tomon servislariga chiqib ketishi ehtimoli bor, shu sababli ochiq siyosat va institutsional reglament talab qilinadi. O’zbek mualliflari ham sun’iy intellekt ta’limga joriy etilganda axborot madaniyati, mas’uliyatli foydalanish va shaffoflikni asosiy shart sifatida ko’rsatadi.

**Uchinchi xavf** - algoritmik og’ish - muayyan aktsent yoki diskurs uslubini “me’yor” sifatida ustun qo’yish o’quvchida tilga nisbatan noto’g’ri ijtimoiy baho va o’z nutqidan uyalish kabi oqibatlar keltirishi mumkin.

**To’rtinchi xavf** - pragmatik xatolar - grammatika “toza”, ammo vaziyatga nomuvofiq jumlarlar real muloqotda kommunikativ muvaffaqiyatsizlikka olib keladi, bunday holatda o’qituvchi vaziyatli trening va refleksiya orqali pragmatik sezgirlikni shakllantiradi.

Amaliy va ilmiy jihatdan eng maqbul strategiya “gibrid model”dir, o’qituvchi pedagogik arxitektor va rahbar, sun’iy intellekt esa adaptiv assistent. O’zbekistonning raqamli transformatsiya hujjatlari va sun’iy intellekt strategiyasi ham aynan inson manfaatini ustuvor qo’ygan holda texnologiyani joriy etish g’oyasiga tayanadi. Gibrid modelda sun’iy intellektga ko’proq tezkor va standartlashadigan vazifalar beriladi, o’qituvchi esa yuqori darajali pedagogik vazifalarni boshqaradi. Bu, mohiyatan,

<sup>7</sup> Ashurov J.D. Sun’iy intellekt texnologiyalaridan ta’lim tizimida foydalanishda axborot madaniyatini shakllantirishning ahamiyati. - incop.org. - 2025.

pedagogik texnologiya nazariyasidagi “jarayonni boshqarish va natijani kafolatlash” g‘oyasini raqamli assistent yordamida kuchaytirishdir.

### **XULOSA**

Xulosa o‘rnida ilmiy pozitsiya shunday - sun’iy intellekt til ta’limida mashq, tezkor mulohaza, individuallashtirish va analitika kabi segmentlarda sezilarli samaradorlik beradi, biroq til o‘qitishning markazida qoladigan ijtimoiy-madaniy sezgirlik, pragmatik o‘rinlilik, motivatsiya va emotsional qo‘llab-quvvatlash, sinf muhitini boshqarish, baholash adolati hamda etik mas’uliyat kabi kompleks funksiyalarni u to‘liq qamrab ololmaydi. Shuning uchun “Sun’iy intellekt o‘qituvchini almashtiradi” degan tezis ilmiy jihatdan haddan tashqari soddalashtirilgan, amalda sun’iy intellekt o‘qituvchining kasbiy imkoniyatlarini kengaytiradi, lekin uning o‘rmini egallamaydi. Eng real va istiqbolli yechim - “o‘qituvchi + sun’iy intellekt” ekotizimi bo‘lib, bunda o‘qituvchi ta’limning maqsad, me’yor va qadriyatlarini boshqaradigan subyekt, sun’iy intellekt esa moslashtirish va rutinni avtomatlashtiradigan vosita sifatida ishlaydi. Bu yondashuv UNESCO tavsiyalaridagi “o‘qituvchini kuchaytirish” prinsipiga ham, O‘zbekistonda qabul qilingan raqamli strategik hujjatlardagi inson manfaatini ustuvor qo‘yish g‘oyasiga ham mos keladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Jalolov J.J. Chet tili o‘qitish metodikasi. - Toshkent: “O‘qituvchi”. - 412 b. - 2012.
2. Azixodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. - 160 b. - 2006.
3. Avliyaqulov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya (darslik). - Toshkent. - 2012.
4. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent: “Moliya”. - 171 b. - 2003.
5. Yo‘ldoshev J.G‘. Ta’lim yangilanish yo‘lida. - Toshkent: “O‘qituvchi”. - 2000.
6. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: “Nihol”. - 278 b. - 2013.
7. Alimov R.T. Ta’limda sun’iy intellekt: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollor. - minjusttraining.uz. - 2025.
8. Abdusamatov S. Raqamli ta’lim muhitida sun’iy intellekt elementlarining o‘rni va ulardan foydalanish metodikasi. - inlibrary.uz / universaljurnal.uz. - 2025.

9. Ashurov J.D. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan ta'lim tizimida foydalanishda axborot madaniyatini shakllantirishning ahamiyati. - incop.org. - 2025.
10. Isamuxamedov B.B. Sun'iy intellekt ta'lim tizimida (maqola). - inlibrary.uz. - 2025.
11. Kurbaniyazova Z.K. Ta'lim tizimida sun'iy intellekt elementlaridan foydalanish istiqbollari: yutuqlar va kamchiliklar. - cyberleninka.ru. - 2025.